QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI MINISTRLER KEŃESINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 16-iyul | 493-13-0-Q/24 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi avtomobil yo‘llarining ayrim qismlarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, respublika hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish choralarini kuchaytirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 28-maydagi 11/6-2494-sonli taklifi ma’qullansin.

2. Ellikqal’a, Xo‘jayli**,** Qorao‘zak, Qo‘ng‘irot, Kegeyli, Qonliko‘l, To‘rtko‘l, Amudaryo, Beruniy, Sho‘manoy va Nukus tumanlari hududlaridagi avtomobil yo‘llarining ayrim qismlarida transport vositalarining yuqori harakatlanish tezligi ilovaga muvofiq 100 km/soat tezlikdan 70 km/soat tezlikga o‘zgartirilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi (U.Matnazarov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (S.Kazbekov) bilan birgalikda ilovada ko‘rsatilgan yo‘llarda 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” (70) hamda 5.22 “Aholi punktining boshlanishi” va 5.23 “Aholi punktining oxiri” yo‘l belgilarini o‘rnatsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (S.Kazbekov) mazkur avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish choralarini ko‘rsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Matbuot xizmati (B.Xojanov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Teleradiokompaniyasi (Q.Bekbauliev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Bekmuratov) bilan birgalikda Respublikaning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan avtomobil yo‘llarida transport vositalarining harakatlanish tezligi pasaytirilganligi yuzasidan ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilib, aholini xabardor qilish choralarini ko‘rsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i S.Kazbekov zimmasiga yuklatilsin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi **F.Ermanov**

Qoraqalpog′iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2024-yil 16-iyuldagi
493-13-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ellikqal’a, Xo‘jayli, Qorao‘zak, Qo‘ng‘irot, Kegeyli, Qonliko‘l, To‘rtko‘l, Amudaryo, Beruniy, Sho‘manoy va Nukus tumanlari hududlaridagi avtomobil yo‘llarining ayrim qismlarini 100 km/soatdan 70 km/soat tezlik cheklash va 3.24 “70 yuqori tezlik cheklangan” hamda 5.22 “Aholi punktining boshlanishi”, 5.23 “Aholi punktining oxiri” yo‘l belgilari o‘rnatiladigan avtomobil yo‘llari

RO‘YXATI

T/r	Avtomobil yo‘li nomi	km oralig‘i
	To‘rtko‘l tumani	
1.	A380 “G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beynau” avtomobil yo‘li	592-595 km oralig‘i
2.	4N-102 “To‘rtko‘l shahri-Bezergen paxta punkti-Yomboshqala massivi-Qirqqiz ovuli” avtomobil yo‘li	10-14 km oralig‘i
	Qorao‘zak tumani	
3.	A380 “G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beynau” avtomobil yo‘li	680-685 va 687-692 km oralig‘i
	Amudaryo tumani	
4.	A380 “G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beynau” avtomobil yo‘li	715-718 km oralig‘i
	Xo‘jayli tumani	
5.	A380 “G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beynau” avtomobil yo‘li	795-806 km oralig‘i
6.	4R-174 “Nukus-Xo‘jayli” avtomobil yo‘li	8-11 km oralig‘i
7.	4K-41 “A380 avto yo‘li (797 km)-Shamuratov DFX-Qumjikkon DFX” avtomobil yo‘li	3,6-12 km oralig‘i
	Qonliko‘l tumani	
8.	A380 “G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beynau” avtomobil yo‘li	832-834, 851-853 va 854-855 km oralig‘i
	Sho‘manoy tumani	
9.	A380 “G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beynau” avtomobil yo‘li	817-820 km oralig‘i
10.	4R-177 “Qonliko‘l temir yo‘l stantsiyasi-Sho‘manoy sh.-Qorabayli temir yo‘l stantsiyasi” avtomobil yo‘li	37-39 va 63-65 km oralig‘i
	Qo‘ng‘irot tumani	
11.	A380 “G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beynau” avtomobil	913-918 va 933-940 km oralig‘i

	yo‘li	
Beruniy tumani		
12.	4R-182 “A380 a/yo‘li –Qizilqal’a ovuli-Bo‘ston sh.-Guldursin ovuli-To‘rtko‘l sh.” avtomobil yo‘li	0-12 km oralig‘i
Kegeyli tumani		
13.	4R-178 “Qumshungul temir yo‘l stantsiyasi-Aspantoy q.” avtomobil yo‘li	9-13 km oralig‘i
Nukus tumani		
14.	4R176 “Nukus-Chimboy-Taxtako‘pir” avtomobil yo‘li	17-21 km oralig‘i
Ellikqal’a tumani		
15.	4R-182 “A380 a/yo‘li –Qizilqal’a ovuli-Bo‘ston sh.-Guldursin ovuli-To‘rtko‘l sh.” avtomobil yo‘li	15-53kmoralig‘i
16.	4K 51a “Bo‘ston shahri-Qirqqizobod OFY” avtomobil yo‘li	0-16 km oralig‘i
17.	4N 115 “4R182 a/yo‘lining (40km)dan-Sarabiy OFYga” avtomobil yo‘li	0-20 km oralig‘i
18.	4N116 “4R182 a/yo‘lining (50 km)dan-Guldursin OFY-Guliston OFY-Bahoriston ovuli” avtomobil yo‘li	0-40 km oralig‘i